

Iroda Muhammadjanova Otabek qizi

Namangan davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taraqqiyot strategiyasining online platformasidan biri "Inson qadri" platformasi va uning ahamiyati, jamiyatimizda tutgan o'rni, xalqimiz uchun foydali jihatlari haqida so'z boradi. "Inson qadri" platformasi o'z nomidan ham ma'lumki, xalqimiz foydasini ko'zlaydi. Bu platforma orqali yurtimizdagi aholi uchun turli qulayliklar yaratildi.*

Kalit so'zlar: *strategiya, inson qadri, taraqqiyot, jamiyat, davlat, siyosat va h.k.z*

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan “Inson qadri” onlayn platformasi hamda “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'plami taqdimotlariga bag'ishlangan xalqaro tadbir tashkil etildi. Nufuzli anjumanda 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ijrosiga mas'ul bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar, NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlarining boshqa vakillari, xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari va ekspertlari hamda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar. Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev ochib berdi. U o'z so'zida Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadri uchun” degan tamoyilni hayotda to'la ro'yobga chiqarish vazifasi yaqqol aks ettirilganligi, uning zamirida har bir insonning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir shaxs uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishdek ustuvor maqsad va vazifalar mujassamligini alohida ta'kidlab o'tdi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Cpikerining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – inson qadrini ulug'lagan xalqchil bosh dastur ekanligiga alohida urg'u berdi.

Onlayn portalda Taraqqiyot strategiyasini 2022-yil – “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan 398 ta band hamda yo'nalishlar doirasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar joylashtirilgan. Xususan, belgilangan chora-tadbirlar ijrosi holati — “bajarilgan”, “bajarilmoqda” hamda “bajarilmagan” ko'rinishlarida aks ettirib boriladi.

Shu bilan birga, tadbirda Markaz rahbari Eldor Tulyakov 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 7 ta ustuvor yo'nalish va uni amalga oshirishga qaratilgan 100 ta maqsad hamda ko'rsatkichlar

haqidagi ma'lumotlar aks ettirilgan “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'plami taqdimotini ham o'tkazdi.

Hozirda mazkur to'plam Markaz tomonidan muntazam chop etib kelinmoqda. Ayni kunga qadar Parlament palatalari, vazirlik, idora va tashkilotlar, NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda boshqa bir qator tashkilotlarga o'z faoliyatlarida foydalanishlari uchun taqdim etilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilik tomonidan kuzatib borish imkonini yaratish maqsadida portal ma'lumotlari muntazam yangilanib boriladi.

Shu bilan birga, platformada Davlat dasturining har bir bandining ijro holatini ko'rsatib o'tish imkoniyati yaratilgan. Mazkur imkoniyatlar tegishli davlat organlarining Davlat dasturining ijrosi bo'yicha mas'uliyati va hisobdorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1.Taraqqiyot strategiyasi to'plam.2022-y
2. 2.www.xs.uz
3. 3.www.darakchi.uz